



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **XURSHID DO‘STMUHAMMADNING “O‘YIN” ROMANIDA BOLA XARAKTERINING SHAKLLANISHI**

**Tursunpo‘latova Marjona Sul-tonmurod qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, magistrant

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘yin” romanida bola xarakterining shakllanishi tahlil qilinadi va yoritiladi. Asardagi qahramonlarning bolalik davri, ularning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy muhit va tarbiyaning shaxs kamolotiga ta’siri badiiy-psixologik jihatdan o‘rganiladi. Shuningdek, roman qahramonining dunyoqarashi va xarakteridagi o‘zgarishlar, uning ma’naviy-axloqiy shakllanish jarayoni asar matni asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida muallifning bola psixologiyasini tasvirlashdagi mahorati hamda inson shaxsining shakllanishida bolalik davrining muhim o‘rni ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** bola xakteri, bolalik, psixologizm, ruhiy kechinma, tarbiya, ijtimoiy muhit, shaxs kamoloti, Xurshid Do‘stmuhammad, “O‘yin” romani.

## **ФОРМИРОВАНИЕ ХАРАКТЕРА РЕБЁНКА В РОМАНЕ ХУРШИДА ДУСТМУХАММАДА «ИГРА»**

**Турсунпулатова Маржона Султонмурод кизи**

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, магистрантка

### **Аннотация**

В данной статье анализируется проблема формирования детского характера в романе Хуршида Достмухаммада «Игра». Детство героев произведения, их психологический опыт, влияние социальной среды и воспитания на развитие личности изучаются с художественно-психологической точки зрения. Также на основе текста произведения освещаются изменения мировоззрения и характера героя романа, процесс его духовно-нравственного формирования. В результате исследования раскрывается мастерство автора в описании детской психологии и важная роль детства в формировании человеческой личности.

**Ключевые слова:** детский характер, детство, психологизм, психологический опыт, воспитание, социальная среда, развитие личности, Хуршид Достмухаммад, роман «Игра».

## **THE FORMATION OF A CHILD’S CHARACTER IN KHURSHID DUSTMUHAMMAD’S NOVEL THE GAME**

**Tursunpo‘latova Marjona Sul-tonmurod qizi**

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Master’s Student

### **Abstract**

This article analyzes the issue of the formation of a child's character in the novel "Game" by Khurshid Dostmuhammad. The childhood of the heroes in the work, their mental experiences, the influence of the social environment and upbringing on the development of the personality are studied from an artistic and psychological perspective. Also, the changes in the worldview and character of the hero of the novel, the process of his spiritual and moral formation are highlighted based on the text of the work. As a result of the research, the author's skill in describing child psychology and the important role of childhood in the formation of the human personality are revealed.

**Keywords:** child character, childhood, psychologism, mental experience, upbringing, social environment, development of the personality, Khurshid Dostmuhammad, the novel "Game".

Inson shaxsining shakllanish jarayoni, ayniqsa bolalik davri, badiiy adabiyotda muhim va serqirra mavzulardan biri hisoblanadi. Bola xarakterining shakllanishi uning yashab turgan muhitiga, oilaviy tarbiyaga, ijtimoiy sharoitga hamda ruhiy kechinmalariga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, “O‘yin” romanida bola obrazining ichki dunyosi, uning asta-sekin ulg‘ayib borishi jarayonidagi ruhiy o‘zgarishlar chuqur va ta’sirchan tasvirlangan.

Bola obrazi badiiy adabiyotning eng qadimiy va eng muhim obrazlaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida poklik, ezgulik, beg‘uborlik, tabiiylik va insoniy kamolot ramzi sifatida talqin etib kelinadi.

Inson hayotining ibtidosi bo'lgan bolalik davri adabiyotda nafaqat biologik yoki yosh bilan bog'liq tushuncha sifatida, balki ma'naviy-axloqiy mezon, ideal holat, insonning eng sof ruhiy pallasini ifodalovchi badiiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Asarda bola xarakteri tayyor holatda emas, balki turli hayotiy vaziyatlar, sinovlar va ichki kechinmalar orqali bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Muallif bolalikning beg'ubor olami bilan birga, uning murakkab jihatlarini ham ochib beradi. Ayniqsa, bola ongida kechadigan savollar, qo'rquvlar, orzular va hayotga bo'lgan dastlabki munosabatlar uning xarakterini belgilovchi asosiy omillar sifatida talqin etiladi.

**Asosiy qism.** Adabiy asarlarda bola obrazining yaratilishi, uning psixologik holatini tasvirlash adibdan nafaqat badiiy mahoratni, balki chuqur psixologik tafakkurni ham talab etadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda psixologik tahlil usullarining rivojlanishi bilan birga, bolalar ruhiyatining badiiy aks ettirilishiga nisbatan ilmiy qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, bola qalbidagi ichki kechinmalar, ularning tashqi dunyo bilan o'zaro munosabatlari, ijtimoiy va ma'naviy muhit ta'sirida shakllanib boruvchi psixologik o'zgarishlar bugungi adabiy-tahliliy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatining eng nozik va teran qatlamlarini ochib beruvchi kuchli vosita sifatida qadim zamonlardan beri insoniyat tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Xususan, bolalar ruhiy olami, ularning kechinmalari, ichki iztiroblari va orzu-umidlari adabiyotda alohida mavzu sifatida o'z aksini topgan. "O'yin" romanida bolalarning beg'ubor qalbi, hayotiy orzulari, qo'rquv va iztiroblari, tashqi muhit bilan munosabatlari nihoyatda samimiy va tabiiy tarzda yoritilgan. Adib bola obrazini yaratishda chuqur psixologik yondashuvdan foydalanib, o'quvchini o'sha holat va kayfiyatni his etishga undaydi.

Bolalik motivi Xurshid Do'stmuhammad ijodida ayricha o'rin tutadi. Nazar Eshonqul aytganidek, "bolalik – ijodkorning fantaziyasini tarbiyalaydigan va qanot beradigan davr. Bolalik xayollari butun umr yozuvchiga ruh, kuch va zavq bag'ishlaydi, ilhom va quvvat beradi, olamga hayrat ko'zi bilan boqishni o'rgatadi" [2, 222-b.].

Yozuvchi, adabiyotshunos olim, tarjimon, siyosatchi va jurnalist Xurshid Do'stmuhammad bolalik xotiralariga asoslangan avtobiografik xarakterdagi "O'yin" romanini yozgan. Bu asar yozuvchining yoshligi va bolaligi kechgan Toshkentning Eski shahar qismidagi qadimiy Chig'atoy mahallasiga oid xotiralar asosida yaratilgan.

"Hu-u, bolalik ko'chalarini, tor va tuproq ko'chalarni unutib bo'larkanmi?! ...Hazilvon Mahkam otani eslaymi, Jo'raboy otani, Qutbi xolani, tinib-tinchimas Abdulatif mahalla oqsoqolini, pak-pakana va o'rdakyurish qilib qadam olishini ko'rganda ortidan bolalar bilan masxara qiladiganimiz Fotima kinnachini, Minov devonani unutib bo'ladimi?.. Ularning har biri o'zicha bir tip, o'zicha bir obraz, o'zicha bir asar qahramoni... Qachon ularni yozaman, bolalikda sho'xlik qilib, tushunib-tushunmay ularni ranjitib, diliga ozor yetkazib qo'yanlarim mening bo'ynimdagi qarz axir!.." [6], – degandi adib suhbatlarining birida.

Xurshid Do'stmuhammad bo'ynidagi mana shu qarzdan qutuldi. Yoshlik xotiralariga bag'ishlangan "O'yin" romanini yaratdi. Asar markazida bosh qahramon Fazliddin ismli bola va uning do'stlari orqali berilgan bolalik dunyosi tasviri turadi. Muallif Fazli obrazi orqali o'zining yoshlik chog'larini, kichkina Xurshid obrazini tasvirlaydi. Asarda tasvirlangan mahalla ham yozuvchining bolaligi kechgan mahalla edi. Buni yuqorida keltirilgan yozuvchining o'z bolaligi haqidagi xotiralaridan ham ko'rish mumkin.

Muallif asar bosh qahramoni Fazlini: "Hali yosh go'dak, o'yinqaroq, hayotning bordi-keldisini tushunmaydi – ota-onasi, akalari va opalari u haqida shunday deb o'ylashadi. Biroq Fazli kattalarning aytganini qilmagani bilan ich-ichida o'z bilgani bor, tilida "xo'p" deya qaysarligi tutadi. U tengqur o'rtoqlari orasida rosayam ziyrak, kuzatuvchan, oilasidagilar bo'ladimi, qarindosh-urug'larmi, qo'ni-qo'shnilarmi, mahalladoshlarmi – hammasini tanib-bilib yuradi. Shunchaki yoki nomigagina tanimaydi-bilmaydi, balki u nihoyatda sinchkov – zimdan kuzatadi, o'rganadi, aqli yetganicha xulosalar yasaydi" [2, 6-b.], – deya ta'riflaydi.

Ushbu ta'rif orqali Fazli obrazi oddiy bola sifatida emas, balki ichki dunyosi boy, kuzatuvchan va tafakkurga moyil shaxs sifatida gavdalanadi. Muallif uni faqat o'yin va sho'xlik bilan band bola sifatida emas, balki atrofdagi voqelikni idrok etishga intiluvchi, kattalar dunyosini ham kuzatib boradigan sezgir obraz sifatida ko'rsatadi. Bu esa asarda bolalik tasvirini oddiy xotira emas, balki psixologik tahlil darajasiga ko'taradi.

Fazli obrazining yana bir muhim jihati shundaki, u o'z tengdoshlari orasida yetakchilik va kuzatuvchanlik xususiyatlariga ega. U atrofdagi odamlarni yuzaki emas, balki ularning xatti-harakatlarini ham tahlil qiladi va o'zicha xulosalar chiqaradi. Bu esa bolalik dunyosining faqat beg'uborlik emas, balki

tafakkurning shakllanib borayotganligini ham ko'rsatadi.

Asarda muallif bolalar dunyosini, ularning ichki olamini juda chiroyli tasvirlar va voqealar orqali yoritadi. Bolalarning ko'ngli sof va samimiy, hech qanday kirlklarsiz beg'ubor bo'ladi. Asarda tasvirlangan bolalar va ularning ichki dunyosi, atrof-muhitni, yon-atrofdagi odamlarni qanday ko'rinishda ko'rishi va anglashi o'smir yoshidagi asar qahramonlari misolida ko'rsatib berilgan. Bosh qahramon Fazli ziyoli, o'qimishli oilaning farzandi. Ularning oilasidagi muhit, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat hamma havas qilar darajada yo'lga qo'yilgan. Bunga asosiy sabab esa uning otasi Najib doda va onasi Munis onaning farzandlariga bergan chiroyli tarbiyasidir. Fazli atrofidagi tanishlariga, do'stlariga, qo'ni-qo'shnilariga, nafaqat qo'shnilariga, balki barcha insonlarga mehr-oqibatli bo'lishni onasi Munis onadan o'rgangan. Chunki Munis ona tabiatan mehribon, saxiy, ochiqko'ngil ayol. U barchaga yordamga oshiqadi. Mahalladagi kasalmand odamlarni, yordamga muhtoj tanishlarini yo'qlashga, holidan xabar olishga harakat qiladi. Farzandlariga ham mehr-muruvvatli, oqibatli, saxovatli bo'lishni doimo uqtiradi. Munis ona Fazli orqali qo'ni-qo'shnilariga tuguncha qilib ovqat va yeguliklar berib yuboradi. Hamisha odamlarga yordam berishga oshiqadi va buni Fazliga ham "savob bo'ladi" deya uqtirib, o'g'lini mehribon bo'lishga o'rgatadi.

– Fazli, – dedi onasi ustiga kulcha non yopilgan kosani dasturxonchaga o'rayotib, – moshkichiri qilgandim, shuni Zahro kennoyiga berib kel.

– E, oyi, rosa o'yin qiziyotuvdi! Haliroq olib boray.

– O'yinning oxiri yo'q, o'g'lim. Ovqat sovib qolmay tashlab kelgin, savob bo'ladi. O'ynab borib kelasan..." [2, 174-b].

Onasining odati shu – uyda tansiq taom tayyorlansa, Fazlini dam Salima xolanikiga, dam Naima opoqinikiga, ko'proq Zahro kennoyinikiga jo'natadi. Fazli dasturxonchaga o'ralgan bir kosa yo bir taqsimcha taomni qo'ltiqlab goh Allonga, goh Lo'li tupikka, goho esa Hastimomga qarab yo'lga tushadi. Fazli ko'chadagi o'rtoqlarining o'yinidan quruq qolsa-da, onasining ra'yini qaytarmaydi, "savob bo'ladi" iborasining ma'nosini to'liq tushunmasa-da, so'zdagi sehr uni rom etib qo'yadi, tugunchani qo'ltiqlab yo'lga tushadi.

Mahallaga yangi ko'chib kelgan Karomat aya va uning besh bolasiga ham mehribon bo'lishini, ularga yangi joyga moslashib ketishlarida yordamlashishini aytadi. Karomat ayaning Fazlilar tengi Baqo ismli o'g'li bo'ladi. Baqo tabiatan odamovi, hamisha tajang bo'lib yuradigan, davraga qo'shilishi biroz qiyinroq bola edi. Uni Fazlining do'stlari Lutfulla, Yahyo, Mirahmad va Xo'jalar kelgindi, qishloqi deb kamsitishadi va o'yinlariga qo'shishni xohlashmaydi. Fazli esa tabiatan mehribon va ko'ngli bo'sh bo'lgani uchun uni bolalarning oldida himoya qiladi, bolalarga Baqoga nisbatan xushmuomalaliroq bo'lishlarini aytadi. Bu ham uning oilasidan olgan tarbiyasi natijasi edi.

Asarda bir nechta oilaning farzandlari tasvirlangan. Shular ichidan Fazli va Baqoni oladigan bo'lsak, ularning tarbiyasida, xulq-atvorida yer bilan osmoncha farqni sezamiz. Chunki bu ikki bolaning oilasidagi muhit har xil. Fazli ziyoli, o'qimishli ota-onaning farzandi. Otasi aqlli odam. Mahalla-ko'ydagilar, tanish-notanishlar "Mulla Najib" deb hurmatini joyiga qo'yishadi. Fazli har safar buni eslaganida ich-ichidan o'zicha mag'rurlanadi, chunki o'rtoqlaridan hech birining otasiga bunday murojaat qilishmaydi odamlar. Eng asosiysi, u tinch muhitda voyaga yetadi. Baqo esa uysiz-boshpanasiz, onasi va aka-singillariga qo'shib sarson-sargardonlikda yurib, "kelgindi-ko'chmanchi" nomini olgan bola. Uning onasi Karomat ona farzandlari uchun jonini beradi, ularni har kimdan, har narsadan himoya qiladi, lekin qayerga bormasin, uning farzandlariga past nazar bilan qarashadi, jerkishadi, kelgindilar deb kamsitishadi. Hali go'dak holida shuncha qiyinchiliklarni ko'rgan Baqo qo'rs, badjahl, tajang bo'lib ulg'ayadi. Muallif asardagi bolalarning bu holatini tasvirlashdan maqsad jamiyatdagi turli xil sharoitda yashab, turfa xil xarakterlarni ko'rsatishga harakat qilganligidir. Baqoning bu holatga kelishi na uning, na onasining aybi emas. Bu o'sha vaqtdagi tuzumning nuqsanlari edi. Xalqqa yaxshi hayotni va'da qilgan hukumat tepasidagi shaxslar balandparvoz, aldanchi gaplar bilan ularni bir tekisda, xalqning har bir vakili to'kin-sochinlikda yashashiga ishontirishadi. Ammo ijtimoiy muhit ular va'da qilganidek emas edi. Ularning maqsadi xalqqa o'zlarini qiyinchilikdan qutqaruvchi, farovon hayot beruvchi xaloskordek ko'rsatish edi. Aslida esa asosiy maqsadlari xalqni ishontirib, qaramlikda tutish bo'lgan.

Yozuvchi asarda bolalarning o'yin o'ynayotgan holatini ko'proq tasvirlashga harakat qilgan. Chunki o'yinlar bolalarni katta hayotga tayyorlaydigan vosita. Barchamizga ma'lumki, bolalikdagi o'yinlar yosh bolalarning jon-u dili. "Ruxsat berishadimi-yo'qmi, quvadimi-uradimi, bolalalar o'yini qachon to'xtagan! "Ko'chaga chiqma" deb bolaning yo'lini to'sish oson, lekin ko'chada shovqin-suron ko'tarib o'ynayotgan tengqur bolaning yuragi qafasidan chiqib ketadi, o'yindan uzib olinsa. Bunaqangi tarbiyadan ko'ra ortiq shafqatsizlik, ehtimol, yovuzlik yo'q dunyoda, bolalarning nazdida. "O'ynama" degan taqiqning

“Nafas olma!” degan amri farmondan farqi yo‘q!” [2, 64-b.].

Muallif asarda keltirilgan to‘p tepish, soqqa quvlash, quvlamachiq, berkinmashiq, qutqarmachiq, chillak va shu kabi o‘yinlarni bejizga keltirib o‘tmaydi. U tuzum siyosatidagi o‘yinlarni bolalar o‘yini bilan parallel tasvirlaydi. Urush o‘yini – g‘irrom o‘yin, xalqning nochorlikdan ko‘chish-ko‘chish o‘yini, hunarmandchilik va qo‘shimcha daromadning taqiqlanishi – ko‘rmodim, bilmadim o‘yini, hech bir masala hal qilinmaydigan majlisbozlik o‘yini singari o‘yinlar tuzum siyosati va xalq hayotiga oyna tutadi. Muallif bu tasvirlar orqali o‘tgan asrdagi xalqimizning mustamlaka siyosati sharoitida qiynalgan, erki o‘z qo‘lida bo‘lmagan, mustamlakachilarning turli o‘yinlariga o‘ynatilayotgan ahvolini tasvirlashga harakat qiladi.

Asarda o‘tgan asrning 60-yillari ijtimoiy hayoti keng va jonli tasvirlangan. O‘sha davrdagi jamiyat manzarasi, oilalarning yashash tarzi, kasb-kori, turmush sharoiti, to‘y-u marosimlari va kundalik hayotda sodir bo‘ladigan voqealar orqali jonli ifodalangan. Asarning bosh qahramoni va uning do‘stlari yosh bolalar bo‘lganligi sababli, kitobxon voqealarni ham aynan bola nigohi orqali idrok etadi.

Asarda keltirilgan “Tosh ko‘chadan kimlar o‘tmaydi deysiz! Ora-chora oq-sariqdan kelgan, mo‘ylabli, tuki siyrak, yakkam-dukkan o‘sgan echki soqolli amaki katta mis tog‘orasini qo‘ltiqlab paydo bo‘ladi. Kattalar uni “Oxun” deyishadi. – Mazzali-mazzali! Dumbali-dumbali! Mazzali-mazzali! Dumbali-dumbali!” kabi tasvirlar somsa sotuvchi obrazini jonli gavdalantiradi. Shuningdek, “Sara bodroq! – deb keladi shop mo‘ylabli, novcha amaki. Bittasi bir shisha butilka yoki ‘10’ tiyin. Rosa shirin. Talash bo‘lib ketadi bodroq!” kabi epizodlar ham o‘sha davr ko‘cha hayotini, oddiy insonlarning tirikchiligini yaqqol aks ettiradi [2, 20-b.].

Bunday tasvirlar asarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiradi. Yozuvchi mayda ko‘rinadigan, biroq hayotiy jihatdan muhim bo‘lgan epizodlar orqali davr ruhini, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni va bolalar dunyosining o‘ziga xos tasavvurini ochib beradi. Ayniqsa, ko‘cha sotuvchilari, ularning chaqiriqlari va bolalarning ularga bo‘lgan qiziqishi orqali o‘sha davrning jonli ijtimoiy manzarasi yaratiladi.

Bu tasvirlar muallifning bolalik davriga bo‘lgan sog‘inchini ifodalaydi va kitobxonni beg‘ubor, takrorlanmas bolalik xotiralariga yetaklaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, “O‘yin” romani xotira asosiga qurilgan asar bo‘lib, unda yozuvchi o‘z bolalik kechinmalari va yoshligida guvoh bo‘lgan voqealarni badiiy tarzda qayta jonlantiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Xurshid Do‘stmuhammadning “O‘yin” romanida bola xarakterining shakllanish jarayoni murakkab ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlangan. Asarda bola ongining rivojlanishi, uning atrof-muhitni idrok etishi, kattalar dunyosi bilan munosabati hamda hayotiy voqea-hodisalar ta’sirida dunyoqarashining shakllanishi badiiy jihatdan ishonarli yoritilgan. Muallif bolalik davrining inson shaxsiyati kamolotidagi muhim o‘rnini ko‘rsatish orqali tarbiya, oila muhiti va jamiyatning yosh avlod taqdiridagi mas’uliyatini ochib beradi. Roman qahramonining ichki kechinmalari va ruhiy o‘zgarishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bola xarakteri tug‘ma xususiyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit va hayotiy tajribalar ta’sirida shakllanadi. Shu jihatdan “O‘yin” romani bola psixologiyasi va xarakter evolyutsiyasini aks ettiruvchi muhim badiiy asarlardan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Eshonqul N. Mendan “men”gacha. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
2. Do‘stmuhammad X. O‘yin. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
3. Xurshid Do‘stmuhammad. Aytmishlari va fiqralar // Xurshid Davron kutubxonasi. – URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xurshid-dostmuhammad-aytmishlari-va-fiqralar.html>